

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING O'QIB TUSHUNISH
MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH**Atajonova Sadoqat Baxtiyarovna***Xorazm viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi metodisti, UrDU mustaqil
tadqiqotchisi*

sadoqat123a@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish malakalarini rivojlantirish haqida fikrlar bayon qilinadi. Unda o'qib tushunish jarayoni va turlari ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim nutqiy kompetensiya, nutqiy faoliyat, o'qib tushunish, matn, nutq malakalari, til ko'nikmalari.

Abstract. This article presents ideas on the development of reading comprehension skills of primary school students. It also analyzes the process and types of reading comprehension.

Key words: primary education, speech competence, speech activity, reading comprehension, text, speech skills, language skills.

Kirish. Jahonda ilm-fan, texnika, iqtisod sohalari taraqqiyotining jadallashuvi, axborot tizimining globalashuvi, tezkor axborot olish, yaratish va uzatish zaruriyati bois bugungi kun o'quvchisida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish til ta'limining bosh ustovor vazifasiga aylandi. Shu nuqtayi nazardan boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini, xususan, [tinglash, o'qish, so'zlash, yozish, tushunish, anglash](#), tahlil qilish va faoliyatda to'g'ri, maqsadli, aniq qo'llashga doir kompetensiyalarini rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirish, nutq o'stirishning turlari, shakllari, o'quvchilarda og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish masalalari, nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish Q.Abdullayeva, K.Qosimova, M.Asqarova, G.R.Akromova, T.Ziyodova, R.Yo'ldoshev, R.Ibragimov, S.Matchanov, A.Nisanbayeva, N.Nurmuhammedova, Sh.Nurullayeva, Q.Shodiyeva, F.O'rinova va A.Hamroyev kabi bir qator olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Shuningdek, ona tili o'qitishning mazmuni, integratsiyali ta'lim orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish hamda matn ustida ishlashga doir [A.G'ulomov, A.Zunnunov Q.Yo'ldoshev, Q.Husanboyeva, Sh.Yusupova, R.Safarova](#) va shu kabi bir qancha olimlarning ilmiy tadqiqotlari mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy jamiyat hayotida o'qib tushunish bilish va muloqot vositasi sifatida katta ahamiyatga ega. Shuningdek, eshitish kanallariga qaraganda ko'rish kanallarining o'tkazish layoqati birmuncha yuqori. Shu bois bosma matn ko'rinishida tavsiya qilingan axborot eshitilgan axborotdan ko'ra ishonchli va samarali tarzda qabul qilinadi hamda unga kam xarajat va kuch sarflanadi. Boshqa jihatdan qaraganda, tabiiy muloqot sharoitida nutqiy faoliyatning barcha turlari uzviy bog'liqligi hamda o'qish ko'nikmalarining yaxshi rivojlanganligi ushbu faoliyatning boshqa turlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'qib tushunish – bu matnning grafika yordamida ifodalangan mazmunini muloqot vazifasiga qarab qabul qilish va qayta ishlab, mazmunan anglashga doir nutqiy faoliyat turi. Real hayotda biz turli tarzda o'qiyamiz, o'qish xususiyati bizning har bir alohida vaziyatda o'qishdan ko'zlaydigan maqsadimizga bog'liq. Bu o'qib tushunishning quyidagi turlarini belgilaydi:

- analitik (tahliliy) o'qish;
- o'rganish uchun o'qish;
- yuzaki o'qish;
- izlanuvchi o'qish;
- tanishish uchun o'qish va h.k.

Tahlil va natijalar. Boshlang'ich ta'limda matni o'qib tushunish jarayoni bir qancha jarayonlardan tashkil topadi. Bular quyidagilardir:

- 1) pedagogik jarayon – biror shaxs tomonidan o'rgatish, ko'rsatishni taqozo qiladi;
- 2) psixologik jarayon – diqqatni jamlagan holda o'qilayotgan narsaga qarash, tikilishni talab qiladi,
- 3) jismoniy jarayon – boshqa harakatlarni to'xtatgan holda ko'zni faqat harf, bo'g'in yoki so'zga qaratishni taqozo etadi;
- 4) fiziologik jarayon – o'rgatilayotgan harf yoki so'zni takrorlay olishni talab qiladi, o'qiy olish layoqatining mavjud yoki mavjud emasligini anglatadi.

O'qish yondosh nutq malakalari va til ko'nikmalarini shakllantirish hamda nazorat qilish vositasi ham hisoblanadi. Jumladan:

- o'qish o'quvchilarga til va nutq materialini o'zlashtirish jarayonini optimallashtirishga ko'maklashadi;
- leksika va grammatika, tinglab tushunish, yozish va og'zaki nutqni nazorat qilishning kommunikativ yo'nalishdagi topshiriqlarini o'qish malakalariga ega bo'lgandagina qo'llash mumkin, ular yozma matnlar asosida tuziladi;
- barcha til va nutq ko'nikma-malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga doir mashqlar ham matn va mashq-topshiriqlarga berilgan yozma topshiriqlarga tayanadi.

O'qishning lug'at boyligini oshirishdagi roli beqiyosdir. O'qish jarayonida ko'p uchraydigan so'zlar va iboralar faol leksikaga o'tadi, og'zaki nutqda qo'llanadi.

O'qish davomida ongsiz tarzda eslab qolish yuz beradi, bu tabiiy hodisa bo'lib, ongli eslab qolishdan ko'ra foydaliroqdir. Shu bois boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'qish uchun matnlarni til birliklarining ko'p marotaba qaytarilishi maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich ta'limda ko'proq o'quv matnlaridan foydalaniladi. O'qishga o'rgatish ham mustaqil maqsad, ham nutqiy faoliyatning boshqa turlarini egallashda vosita bo'lishi mumkin. O'qishga o'rgatish o'qish texnikasi, ovoz chiqarib o'qish va ichida o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan boshlanadi. Albatta, bularning hammasi tilning fonetik jihatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Darsda (intensiv) o'qish va uyda (ekstensiv) o'qish – o'qish jarayoni amalga oshiriladigan joy bo'yicha farqlanadi. O'quvchilarning o'qish tajribasi oshgan sari darsda o'qishning salmog'i uyda o'qishga nisbatan kamayib boradi. Uyda o'qish darsning vaqtini tejashga va faqat o'qilgan materialning qanday tushunilganligini tekshirishga imkon beradi.

O'qib tushunish uchun matnlarni tanlash tamoyillari ta'lim mazmunini maqsadga muvofiqlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bunda matn mazmuniga hamda matnning lisoniy jihatlariga bo'lgan talablar farqlanadi.

Matn mazmuniga quyidagi talablar qo'yiladi:

- 1) matnlar o'quvchilar uchun qiziqarli hamda ularning yoshiga mos bo'lishi;
- 2) matnlarda o'quvchilarga ma'lum voqelik aks etgan bo'lishi;
- 3) og'zaki nutqni o'stirishda samaraliroq hisoblanadigan sujetli matnlarga ko'proq o'rin ajratilishi.

O'qish texnikasiga oid malakalar savod o'rgatish davrida shakllantirila boshlanadi. Bunday malakalarni hosil qilishga qaratilgan mashqlar qiyinlashib boradigan elementlar – harflar, harf birikmalari, so'zlar, gaplar, mikromatlarni talaffuz qilish asosida quriladi. O'qish tezligi – bu bosqichning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi: tez o'qishga ilk bosqichdanoq erishish mumkin.

Xulosa. Demak, o'qib tushunish – nutqiy faoliyatning turlaridan biri sifatida murakkab psixofiziologik jarayon bo'lib, faqat muayyan lingvistik poydevor, ya'ni fonetik va leksik-grammatik bilimlar asosida amalga oshiriladi.

O'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda ushbu jarayonning ikki tomoni, ya'ni yozma xabarni qabul qilishga tayyorlaydigan o'qish texnikasini hamda axborotni sodir bo'lgan nutqiy faoliyat mahsuli sifatida anglashni inobatga olish zarur. Buning muhim sharti esa tizimli va maqsadga qaratilgan maxsus mashqlarni bajarishdir. O'qishni nazorat qilish obyekti matnning til materiali emas, uning mazmunini tushunishdir.

Adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q., Hazratqulov M., Xolsaidov F. Ona tili va o'qish savoidxonligi metodikasi.- Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2022.- 252 b.
2. **Ismailov A.A., Karimova N.A., Haydarov B.Q., Ismailov Sh.N.. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. – T.: 2019.**
3. Toirova M.E. O'qish savodxonligi. 3-sinf. I qism.- Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 80 b.
4. Aydarova U.B., Azizova N.K. O'qish savodxonligi. 4-sinf. VI qism.- Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 80 b.